TARIX

UDK: 93.930 X 25 DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss5/a12

QO‘QON XONLIGI MOLIYAVIY TIZIMIGA ELCHILIK MASALALARINING TA’SIRI: XUDOYORXONZODANING “ANJUM AT-TAVORIX” ASARI ASOSIDA

ВЛИЯНИЕ ПОСОЛЬСКИХ ПРОБЛЕМ НА ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ КОКАНДСКОГО-ХАНСТВА:НА ОСНОВЕ "АНДЖУМ АТ-ТАВОРИХ" ХУДЬЯРОХАНЗОДА

THE IMPACT OF THE AMBASSADOR'S PROBLEMS ON THE FINANCIAL SYSTEM OF THE KOKAND-KHANATE: ON THE BASIS OF "ANJUM AT-TAVORIH" OF KHUDYAROKHANZODA

Xatamova Zumradxon Nazirjonovna[1]

[1]**Xatamova Zumradxon Nazirjonovna** − Farg‘ona politexnika instituti “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD.)

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim bo‘lgan manbalardan biri Xudoyorxonzoda qalamiga mansub bo‘lgan “Anjam at-tavorix” asarida elchilik munosabatlarining yoritilishi masalasi moliyaviy bayon etilgan. Xonlikning har bir elchilik munosabatlari moliya tizimiga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Bunda davlat moliyaviy kirim yoki sarf xarajatni amalga oshirgan. Siyosiy mazmundagi elchilik munosabatlari natijasida esa ma’lum bir hudud xonlik tarkibiga qo‘shilsa soliq obyekti ko‘payib, xazinaga daromad kelishidagi resurs paydo bo‘lgan. Yoki, aksincha bo‘lsa, soliq obyekti yo‘qotilishi natijasida moliyaviy kamomad vujudga kelgan. Qo‘qon xonligi va chet davlat bilan o‘tkazilgan elchilik muzokaralari ijobiy yakunlansa mamlakatlararo savdo hamda iqtisodiy munosabatlar kuchayib borgan. Bu esa xonlik moliya tizimini ravnaqiga xizmat qilgan.

Аннотация

В статье, одном из важных источников в изучении истории Коханского ханства «Анджам ат-Таварих» Худоёрханзода, рассматривается финансовый вопрос посольских отношений. Все посольские отношения ханства были непосредственно связаны с финансовой системой. В этом случае государство произвело финансовый доход или расход. В результате дипломатических отношений политического содержания, если в состав ханства входила определенная территория, увеличивался объект налога, появлялся ресурс для поступлений в казну. Или, наоборот, финансовый дефицит возник в результате утраты объекта налогообложения. Если переговоры между Коканским ханством и посольством с иностранным государством заканчивались положительно, торгово-экономические отношения между странами усиливались. Этопослужилоразвитиюфинансовойсистемыханства.

Abstract

In the article, one of the important sources in the study of the history of the Kokhan Khanate "Anjam at-Tavarikh" Khudoyorkhanzoda, the financial issue of embassy relations is considered. All embassy relations of the khanate were directly connected with the financial system. In this case, the government generated a financial income or expense. As a result of diplomatic relations of a political nature, if a certain territory was part of the khanate, the object of tax increased, and a resource appeared for revenues to the treasury.Or, on the contrary, the financial deficit arose as a result of the loss of the object of taxation. If the negotiations between the Kokan Khanate and the embassy with a foreign state ended positively, trade and economic relations between the countries intensified. This served to develop the financial system of the khanate.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon, elchi, do‘stlik, fitna, maqsad.*
Ключевые слова*: Коканд, посол, дружба, заговор, цель.*
Key words: *Kokand, ambassador, friendship, conspiracy, goal.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Qo‘qon xonligi 1709-1876-yillarda o‘z moliyaviy tizimiga ega bo‘lgan markaziy boshqaruv hokimiyati mavjud mustaqil davlat edi. Xonlik moliyaviy tizimining konseptual asoslari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, geografik omillar ta’sirida shakllanib bordi. Maqolada tahlil etilgan elchilik munosabatlaridagi moliyaviy ta’minot davlat xazinasining pul aylanmasidan amalga oshirilgan. Qo‘qon xonligi Rossiya, Xitoy, Xindiston, Turkiya, Buxoro, Xiva kabi davlatlar bilan xalqaro aloqalarni amalga oshirgan. Ularni siyosiy, iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi doimo moliyaviy poydevor asosida amalga oshirilgan. Moliyaviy resursning birlamchi manbasi bo‘lgan pul va uni xonlikda zarb etilishi misolida ko‘rib chiqsak: 1801-1810 yillar Umarxon hukmdorligi vaqtida mamlakat ichkarisida chaqa pullar muomalada bo‘lgan. Rossiya hududlarida esa ayni shu vaqtda

Umarxon tomonidan zarb qilingan kumush tangalar savdo vositasi sifatida amaliyotga kiritilgan. Bu esa Qo‘qon xonligining xalqaro aloqalarda o‘z siyosiy mavqeini yuksaltirishga xizmat qilgan moliyaviy islohotlardan biri edi.

Qo‘qon xonligi elchilik masalalari kim va qaysi davlat bilan amalga oshirilmasin, barchasida sarf-xarajat va moliyaviy ta’minot asosiy vazifani bajargan. Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim bo‘lgan manba Xudoyorxonzodaning “Anjum at-tavorix” asari [2.1.]dagi Qo‘qon xonligining elchilik munosabatlarining moliyaviy jihatlari tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qo‘qon xonligi elchilik munosabatlarining moliyaviy tarixi masalasi kompleks tarzda to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsada, A.O‘rinboev, R.N.Nabiev, A.Juvonmardiev, H.Ziyoyev, H.Bobobekov, T.Q.Beysembiyev, SH.Vohidov, V.Ishquvvatov, Z.Ilhomov, O‘.Sultonov, SH.Maxmudov, B.Tursunov, SH.Qo‘ldoshev, T.Xudoyqulov, B.Babadjanov, M.Axmedova va boshqa olimlar tadqiqotlarida xonlik elchilik munosabatlariga qisman to‘xtab o‘tilgan[1.1.]. Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalarda elchilik munosabatlarini yoritilishi va ularni moliyaviy tadqiqi ilk marotaba tahlil etilmoqda.

“Anjam at-tavorix” asarining yagona muallif nusxasi R. N. Nabievga taxminan 1940-yillarda T.Mirg‘iyosov tomonidan taqdim etilgan. 1958-yili R. Nabiev iltimosi bilan «Anjum at-tavorix»ni shu dastxat nusxasidan Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi, xattot Abdulqodir Murodov nastahlik xati bilan bir nusxa ko‘chirgan. “Anjam at-tavorix” muallifi ismi asarning biror yerida tilgan olinmaganligi uchun mavhum holda qolmoqda. Qo‘qonshunos tarixchilar, R.Nabiev, H.Bobobekov, SH.Vohidovlarning tahminiga ko‘ra bu asar Xudoyorxonning besh o‘g‘illaridan Muhammadamin yoki Ibn Yamin qalamiga mansub bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ushbu asarni qayta ko‘chirgan xattot A.Murodov asar muallifini Xudoyorxonzoda deb qayd etgan[3.1.3-b.]. Asarni fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga taniqli sharqshunos, Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim bo‘lgan ko‘plab manbalarni ilmiy muomalaga kiritgan yetuk olim Sh.Vohidov tarjima qilgan.

Xudoyorxonzodaning “Anjam at-tavorix” asarida o‘ttizga yaqin elchilik munosabatlariga doir ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularda Qo‘qon xonlarining Buxoro, Xiva, Turk sultonligi, Xitoy, Qashqar kabi mamlakatlar bilan olib borgan elchilik munosabatlari qayd etilgan. Asarda yana Qo‘qon xonligi tarixiga oid bo‘lmagan elchilik munosabatlari ham uchraydi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur mirzo hukmronligi davriga oid elchilik munosabatlari hamda Buxoro va Afg‘oniston amiri o‘rtasida amalga oshirilgan elchilik munosabatlari qayd etilganligi shular jumlasidandir. [3.2.99-b; 266-b.].

Ushbu asarda tilga olingan Qo‘qon xonligi elchilik munosabatlarini mazmun jihatdan besh turga bo‘lgan holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Har bir elchilik an’anasining o‘z mazmuniga ko‘ra davlat xazinasidan moliyalashtirish mezoni mavjud bo‘lgan:

-oliy maqomdagi, do‘stona elchilik munosabatlari;

-dushmanlik bilan boshlanib to‘y bilan tugagan elchilik munosabatlari;

-ayyorlik, fitna bilan tugagan elchilik munosabatlari; bu turdagi elchilik munosabatlari ham barcha davlatlar tarixida ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘p hollarda bunday elchilik munosabatlarining natijasi qirg‘inbarot urush bilan tugagan. Qo‘qon xonligi siyosiy xayotida ham bunga misollar talaygina.

-dushmanlik bilan boshlanib natijasi do‘stlik yoki yarashuv bilan tugagan elchilik munosabatlari (yoki Qo‘qon xonining qo‘li baland kelgan sulhlar);

-do‘stlik bilan boshlanib urush bilan tugagan elchilik munosabatlari tashkil etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (RESULTS AND DISCUSSIONS)

“Anjum at-tavorix” asarini o‘rganar ekanmiz, unda natijasi do‘stlik bilan tugagan, ko‘zlangan maqsadga erishilgan, ya’ni, oliy maqomdagi elchilik aloqalariga duch kelamiz. Buni elchilik munosabatlarining birinchi guruhiga misol qilib keltirish mumkin. Aslida bu elchilik Buxoro amiri tomonidan xitoy-qipchoq isyonini yarashtirish sulhiga aylantirish maqsadida Qo‘qonga jo‘natilgan edi. Xudoyorxonzoda elchilar jo‘natilgan sanani keltirib o‘tmagan. Asardan olingan quyidagi parcha qimmatbaho hadyalar va mehmondorchilik sarflarini taxminan ko‘z oldimizga keltirish imkonini beradi. Bunda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining moliyaviy munosabatlari paydo bo‘lgan: Buxorodan Ismatillo dadxoh qimmatbaho sovg‘alar bilan elchi bo‘lib keladi. 3-kuni elchi ostona o‘pishga ruxsat olib, elchilik odobini balog‘at bilan bajarib, tuhfalarni kimyoasar xon nazaridan

o‘tqazib, xusravona mehribonchilik va iltifotlar bilan baxtiyor qilindi. Yana bir necha kun mehmon sifatida qolib, ketishga ruxsat berildi. Buxoro amiriga loyiq tuhfa va hadyalar berib ularni Azimboy dodxoh bilan elchiga qo‘shib yubordilar[3.3. 254-b.]. Nurato mozoriga yetib borganlarida amiri kabir(Buxoro amiri) ularni kelishlaridan xabardor bo‘lib, Nurato xokimini kutib olish uchun jo‘natdi. Ularni Yangiqo‘rg‘on qal’asiga da’vat qilib, ko‘p e’zoz ko‘rsatdi. Keyin xitoy, qipchoq, qoraqalpoq toifalarini tinchlantirish uchun pand nasihat qildilar. Ularning barchasiga omonlik berilganligini Azimboy dadxoh aytganidan keyin barcha o‘z manziliga qaytdi. Azimboy dodxohni Buxoroga olib ketib, shoxona marhamat va iltifotlardan xursand, mamnun qilib, qaytishiga ruxsat berdilar. Ismatullo dodxoh qimmatbaho sovg‘alar, bir ot bilan yana Qo‘qonga keldi. Elchi bir muddat mehmonnavozlik bilan poytaxtda yashab turib, Sultonxojayi Ato(taxallusi) bilan birga katta hadyalar bilan Buxoroga yuborildi. Buxoro va Farg‘ona davlatlari orasida bir necha marotaba elchilik munosabatlari amalga oshirilib, bu inoqlik natijasida qoraqalpoq va xitoy-qipchoqlarning fasodlari taskin topdi, har ikkala mulkning dushmanlari va buzg‘unchilari gumdonlik burchagida daf bo‘ldilar. Ikki mulkning do‘stlari esa kamronlik manzilida tinch bo‘ldilar [3.4.25-b.]. Keltirilgan misolda bir siyosiy masalani hal etish uchun bir-necha bor elchilik munosabatlari amalga oshirilgan va ularning har biriga moliyaviy xarajatlar amalga oshirilgan.

Xudoyorxonzodaning ushbu asari orqali Qo‘qon xonligi tarixida dushmanlik bilan boshlanib to‘y bilan tugagan elchilik munosabatlariga ham guvoh bo‘lamiz. Abdurahimbiy Samarqandni qo‘lga kiritganidan keyin Buxoro xoni tomonidan ulamolar, yuqori nasabli kishilar uning huzuriga elchi sifatida tashrif buyurishadi va ikki taraf amirlari sulh muzokara boshlashadi. Unga ko‘ra, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on Abdurahim Farg‘oniyga o‘tadi. Buxoro xoni tomonidan ularga da’vo bo‘lmaydi. Farg‘ona hukmdori shularga qanoat qilib, Kattaqo‘rg‘ondan bir qadam ham oldinga siljimasligini tan olib, muhrli ahdnomaga zebziynat berdi. Buxoro elchilari ehson va inhomlar bilan xursand holda o‘z mamlakatlariga qaytdilar. Qo‘qon xoni esa SHahrisabzni bosib olish uchun xarakat boshladi. Shahrisabz xokimi Xakimbek mang‘it buxoroliklar bilan qo‘qonliklar sulh tuzganligini eshitganidan so‘ng ko‘p sovg‘alar va muboraknoma bilan Qo‘qonga o‘z elchilarini yubordi. U o‘z muboraknomasida Qo‘qon xoniga itoatda ekanligi va unga el bo‘lganligi aytilgan edi. Elchilar ojizlik va bo‘ysunish bilan rasm rusumlarni bajo keltiradi. Xonning rahmdilligi jo‘sh urub ularga ko‘p in’omlar bahshida etadi. Ular orqali Xakimbek mang‘itga javohirlar bilan bezatilgan qilich sovg‘a qiladi. Abdujabbor to‘qsobani elchilar bilan birga Xakimbekning akasi Ibrohimbekning qiziga sovchilikka jo‘natadi. Xakimbek katta hurmat bilan ziyofat va mehmondorchilikni bajo keltiradi. Kuchi yetgunicha qimmatbaho matolar, javohirlar, ko‘p hadyalar bilan Oychuchukoyim bint Ibrohimbek valinahmini Samarqandga Abdurahimxon huzuriga yuboradi. Xusumat va dushmanlik elchilik munosabatlari tufayli shunday qarindoshlik bilan tugaydi[3.5.98.]. Shu ulug‘ qizni olib kelgan elchilarni katta izzat ehtirom ko‘rsatilib, sanoqsiz hadyalar bilan Xakimbek huzuriga qaytaradilar. Elchilik munosabatlariga oid bo‘lmasada, davlat xazinasidan moliyaviy pul aylanmasi bor bolgan keyingi hodisalarni keltirib o‘tsak. 1146/ 1733 yilda Abdurahimbiy Toshkent va Turkistonni zabt etish uchun yo‘lga chiqqanida, Xo‘jand hududida kasallik bilan 36 yoshda vafot etadi. Uning ikkita xotini bo‘lib, 1-si Sharafnisodan Erdonabek, Xurshid xonim, Zebuniso xonim, 2-si Oychuchukoyimdan Oyjon xonimlar qolgan.

“Anjum at-tavorix” asarida mazmunan ayyorlik, fitna ishlatilgan va maqsadga yetilmagan elchilik munosabatlari ko‘p uchraydi. Ularda ham moliyaviy kirim-chiqim amalga oshirilgan. Lekin, muallif xarajatlarni pul miqdorida berib o‘tmagan: Qo‘qon xoni Toshkent xokimi Yunusxo‘ja bilan to‘qnashayotgan vaqtda O‘ratepa xokimi Bobekni o‘z jiyani Bekmurod o‘ldirib, hokimlikni qo‘lga oladi. Bu qilgan ishi uchun Qo‘qon xonining g‘azabiga uchrashidan qo‘rqib Buxoro amiri Xaydarga maktub yuboradi. Maktubining asosiy mazmuni unga tobe ekanligini bildirishdan iborat edi. Albatta bundan amir Xaydar juda xursand bo‘ladi, chunki u bundan siyosiy va iqtisodiy manfaat topar edi. Bekmurod jo‘natgan elchiga o‘z ishonchli odamini elchi sifatida qo‘shib jo‘natganidan so‘ng ularning ortidan o‘zi ham yo‘lga chiqadi [3.6.170-b.]. Bekmurod amir Xaydarning sovg‘a salomlar bilan kelganidan xursand bo‘lib oldiga peshvoz chiqqanida uni Bobekning o‘g‘liga otasini xunini olish uchun topshirib yuboradi. O‘ratepaga esa o‘zinig ishonchli odami Ernazarbiy mang‘itni xokim qilib qoldirib poytaxtiga qaytadi. Bu misoldagi elchilikdan maqsad ayyorlik bilan o‘z jonini saqlab qolishga urunish, yaqinlariga qilgan xiyonatini yashirish bo‘lgan va natijada ko‘zlagan niyatiga yetmagan.

TARIX

Xudoyorxonzodaning asarida fitna bilan bog‘liq yana bir qiziqarli elchilik munosabati borki, uni ham keltirib o‘tish Qo‘qon xonligi tarixini chuqur o‘rganishga, moliyaviy munosabatlarni tahlil etishga xizmat qiladi. Olimxon Jizzax qalhasini qamal qilgan vaqtida Toshkentdan Sultonxo‘ja kelib Shohidonni o‘rab oldi. Olimxon Sultonxo‘jani yo‘q qilish muhimroq deb yetib kelganida u ortga chekinadi. Shunda Olimxon ukasi Umarxonni uning ortidan jo‘natadi. Umarxon To‘ytepaga yetib kelganida uning oldiga Sultonxo‘ja nomidan elchi kelib ertaga itoat va tobe etilishi, zafar anjomli sipohning hiloli Chirchiq daryosi sohilida ko‘rinishi bilan Sultonxo‘ja xon qo‘lini o‘pish uchun kelishini aytadi. Bu elchi izzat ikrom bilan (hushxabar olib kelganligi uchun) qabul qilinib, ketish vaqtida unga o‘z elchilarini ham qo‘shib jo‘natiladi. Xon ham Chirchiq daryosi bo‘yiga kela boshlaydi. (Umarxon) Lekin keyin Sultonxo‘ja Childuxtaron hududida to‘xtab urushga tayyorlanayotganligi, uning huzuriga yuborilgan elchilari hibsga olinganligi mahlum bo‘ladi [3.7.177-b.].

Yuqoridagi elchilik munosabati fitna ekanligi kundek ravshandir. Firib, yolg‘onchilik, buzuq niyat aralashgan elchilik munosabatining natijasi vayronkorlik, qirg‘in bilan tugashi mumkinligini ta’kidlagan xolda, bundan keyingi voqealar qaltis tus olganligini eslatamiz. G‘azablangan Umarxon Toshkentni qamal qilganidan so‘ng, suvsiz qolgan shahar ulamolari uning huzuriga bosh eggan holda uzr so‘rab keladi, elchini ham ozod etadilar [3.8.178-b.]. Umarxon Niyozbek qalhasini ham bosib oladi. Fikrimizcha, bu voqeadan so‘ng, xonlik hududi kengaygani bois, moliyaviy asos kengayib qo‘shimcha soliqlar undirish zaxira hududi paydo bo‘ldi.

Xudoyorxonzoda Anjum at-tavorix”da Toshkent xokimi Yunusxo‘ja Qo‘qon xonidan mag‘lubiyatga uchraganidan keyin o‘zining so‘zamol elchisini qimmatbaho sovg‘alar bilan Buxoro amiri huzuriga yarashish maqsadida jo‘natgani haqidagi mahlumotni keltirib o‘tgan [3.9.173-b.]. Bunda elchilar o‘z maqsadlariga erishganliklari uchun yaxshilik bilan tugagan, yoki yakunlangan elchilik munosabatiga amalga oshirilgandir. Toshkent xokimi Buxoro amiridan bir vaqtning o‘zida amirdan to‘p va to‘fang yasovchi ustalarni ham jo‘natishini so‘raydi. Buxoro amiri elchilarni izzat-ikrom bilan kutib oladi. To‘p va qurol yasovchi afg‘on va eronlik ustalardan bir nechtasini ham Toshkent hokimi huzuriga jo‘natadi. Demak, Qo‘qon xonligiga nisbatan umumiy dushman deb qaragan ikki tomon, ya’ni, Toshkent xokimligi va Buxoro amirligi bir maqsad sari birlashishga harakat qilgan. Chunki ikkisi ham Qo‘qon xonligining zaiflashishi yoki unga qarshi urush bo‘lishidan umidvor va manfaatdor bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi tarixida dushmanlik bilan boshlanib natijasi do‘stlik yoki yarashuv bilan tugagan elchilik munosabatlari bo‘lganligini “Anjum at-tavorix” asarida keltirib o‘tilgan quyidagi holatdan bilish mumkin. O‘ratepa voliysi Xudoyorbek vafot etganida uning akasi Bobobekni Farg‘ona xoni hokim etib tayinlaydi. SHunda Buxoro xoni Shohmurod O‘ratepaga yurish boshlaydi. Buni eshitgan Qo‘qon xoni zudlik bilan katta qo‘shin bilan yetib boradi. Qo‘shtegirmon degan joyda to‘xtagan Buxoro hukmdori Musaxo‘ja Dahbediyni elchi sifatida Qo‘qon xoni huzuriga jo‘natadi. Elchi Xo‘jandga kelib, uch kundan so‘ng xon xuzuriga kiritiladi. “Fasohat alomatli va shirin so‘zlar, yaxshi odob va rasmu oyin bilan elchilik vazifasini do‘ndirib, sulh uchun oyat va hadislardan dalil va hujjatlar keltirib, ko‘ngilga yoqar so‘zlar bilan xon va uning a’yonlarini muloyimlikka keltiradi” [3.10.153-b.]. Oliy ziyofatdan keyin sayyid(elchi)ga moliklarga xos kiyimlar va shoxona ehsonlar berib qaytishiga izn beriladi. Unga qo‘shib Qo‘qon xoni o‘zining elchisi sifatida Sayyid Xokimxo‘ja va uch nafar ishonchli kishisini Buxoro xoni huzuriga jo‘natadi. Bu elchilar ikki davlatning sulh bahslarida qatnashdilar. Sulh natijasiga ko‘ra Buxoro tomonidan allaqachon bosib olishga ulgurilgan Zomin qal’asi O‘ratepa muzofotiga qaytarildi. Ko‘rinib turibdiki, bu sulhda Qo‘qon xonining qo‘li baland kelgan hamda moliyaviy yutuqlarni ham qo‘lga kiritgan.

Qo‘qon xonligi tarixida elchilik munosabatlari Umarxon hukmronligi davrida madaniy rivojlangan cho‘qqisiga chiqqan. 1225/1810 yilda Umarxon taxtga o‘tirganligi munosabati bilan qo‘shni hududlardagi xonlar tabrik va do‘stlik elchilarini yuborganlar [3.11.206-b.]. Xudoyorxonzodaning asarida Qo‘qon xonligidan Istambulga borgan elchilar haqida qayd etilgan. Shu vaqtda (Ya’ni Umarxon Xo‘jand, O‘ratepa hududlariga borib, u yerlik aholi va ulug‘ kishilar bilan iltifotli ko‘rishib qaytganidan so‘ng) xoni oliyshon farmoni bilan muhtaram mu’in uddin al-islom, xalifayi rasuli a’nom, a’lo hazrat sulton Maxmudxon jannatmakon nomiga fasohat raqamli munshiylar ixlos bayon etuvchi bir noma yozdirib, elchi xoqon Mir Qurbon orqali hilofat markazi Istambulga yuborildi[3.12.212-b.]. Ayni kunda Qo‘qon xonligini bu davlat bilan amalga oshirgan diplomatik munosabatlarini SH.Maxmudov tadqiq etmoqda[4.1.132-136-b.]. Olim Turkiyadagi “Usmonli arxivi”

fondida saqlanayotgan Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalariga doir hujjatlar asosida aniq faktik ma’lumotlarni ilmiy maqolalarida e’lon qilib borayotganligi extirofga loyiq.

Xudoyorxonzodaning ushbu asarida Qo‘qon xonligi tarixida elchilik munosabatlarini besamar ketganligi, do‘stlikni taklif etgan elchilik munosabati dushmanlikni kuchaytirib yuborganlik holatlariga ham duch kelamiz. Misol uchun quyidagi voqeani keltirish mumkin: Turkiston (Qo‘qon xoni qo‘shinlari tomonidan) qal’a xokimi To‘qay to‘ra qozoqlar lashkari va shu yerda qolgan Buxorolik sipohiylar bilan sarosimalik va iztirobdan yotgan joylaridan turib, mudofaa ishini tashlab, Suzoq qal’asiga qochib yashirindilar[3.13.216-b.]. Rajab qo‘shunbegi bu tabarruk shahar aholisini itoatga da’vat qildi.Turkiston ulamolaridan birini Suzoqda yashiringan To‘qay to‘ra huzuriga elchi sifatida jo‘natib, unga omonlik berilishi, itoat etsa xammasi oldingidek qolishini yetkazdi. Lekin bundan naf chiqmadi.Elchilik munosabati besamar ketdi. Qo‘shunbegi qal’aga yaqinlashganida Buxorodan madad kuchi yetib keladi. Bundan ruhiy kuch olgan To‘qay to‘ra elchini hamrohlari bilan birga qatl etadi. Shunda qo‘shunbegi g‘azablanib, harbiy yurishni kuchaytiradi. Bu do‘stlikni taklif qilgan elchilik munosabatini dushmanlikni kuchaytirib yuborishiga misol bo‘la oladi. Natijada To‘qay to‘ra Samarqandga qochib ketadi, oila a’zolari esa qatl etiladi. Turkiston, Dashti Qipchoqni xonlikka bo‘ysundirganidan keyin qo‘shunbegi Toshkentga qaytadi.

Qo‘qon xonligida ko‘zlangan masadga yetilgan elchilik munosabatlari amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham “Anjum at-tavorih” asarida qayd etilgan. Masalan, ulardan biri Odilto‘ra o‘z o‘g‘lini Qo‘qon xoni huzuriga elchi sifatida jo‘natganligidir. Abulhayrxon avlodidan bo‘lgan Odilto‘ra Xitoy va Rus hududlarida o‘z ko‘chmanchi qabilalari bilan yashab yurgan edi. O‘g‘lini Qo‘qon xoni xuzuriga yuborib shu islom hududida yashashini tahminlab berishini iltimos qiladi, toki bu yil amiri islom xazinasiga barcha devoniy marsumot (soliq)ni yilma-yil, janjalsiz va kechikmasdan ado etsin. Bu iltimos qabul qilinib elchi-farzandi shohona marhamat bilan taqdirlanib shodmon qaytadi [3.14.217-218-b.]. Bu voqea ikki tomon o‘rtasida do‘stona munosabatni ham shakllanishiga olib kelgan. Aynan shu misolda Qo‘qon xonligi moliya tizimi tarixiga oid ma’lumotlar aniq keltirilgan.

Xudoyorxonzoda keltirib o‘tgan voqealar tafsilotlariga ko‘ra Qo‘qon xonligi va Xiva xonligining siyosiy, iqtisodiy aloqalari mustahkam bo‘lganligiga amin bo‘lamiz. Chunki, ikki davlat o‘rtasida amalga oshirilgan elchilik munosabatlarida biror martoraba ham salbiy natijalar ko‘zga tashlanmaydi. Xudoyorxonzoda: “Muhammad Rahimxon Xorazmiydan shohona hadya va tuhfalar hamda mehr to‘la maktub bilan ittifoq va birlashishni taklif qilgan holda Turkiston va Dashti Qipchoq muzofatlarini fathi bilan tabriklab shavkat panoh saroyga elchi keldi. Bir necha kun Xuqandda qolib, izzatikrom va mehmondorchilikdan so‘ng ketishga ruxsat olib, Abdulxoliq qorovulbegi (soqchilar boshlig‘i)ni u bilan birga Xorazmga hadyalar va maktub bilan jo‘natadi”[3.1.218-b.], - deb qayd etganida ham yuqoridagi fikrning tasdig‘i mavjud.

“Anjum at-tavorix” asarida Qo‘qon xonligining bir davlat bilan amalga oshirgan elchilik munosabati hali tugallanmasidan ikkinchi bir davlat bilan elchilik munosabatlarini amalga oshirilganligiga ham misollar mavjud: Xoji Mir Qurbon Istambulga elchi bo‘lib borgan, Turk sultoni Sulton Maxmuddan Farg‘ona amir al musliminiga sultonning lutfini keltirdi. U maqsadiga erishib, yo‘lda Xorazmda Xiva xoni xuzurida bo‘ladi. Xonning bir elchisi bilan birga Qo‘qonga yetib keldi. Xiva xoni elchisi yaxshi kutib olinib, bir necha kun mehmon bo‘lib, keyin xon ijozati bilan Xivaga qaytib ketgan [3.16.229-b.].

Asarda fitnaga sabab bo‘luvchi, Shaxrisabz xukmdori Doniyol parvonachi nomidan Avliyo yasovulboshi Qo‘qon xoni huzuriga elchi bo‘lib borganligi, Umarxon Chin(Xitoy)ga Zuhur devonbegini elchi qilib jo‘natganligi, Qo‘qon xonligi tarixiga aloqador bo‘lmasada, 1254/1838 yilda Afg‘oniston hukmdori amir Do‘st Muhammad o‘z yaqinlari va sodiq sardorlari bilan Buxoro amiri Nasrullo xuzurida mehmonda bo‘lganligi va bu voqeaning salbiy ko‘rinish olishi to‘g‘risida ham bayon keltirilgan.

Xudoyorxonzodaning tahkidlashicha, Umarxonning o‘g‘illaridan biri Sulton Maxmudbek isyonda ishtirok etganligi uchun Shahrisabzga qochirilgan va u yerda xokimning qiziga uylangan edi[3.16. 275-b.]. 1254/1838-1839 yilda Qo‘qondagi bahzi amaldorlardan Sulton Maxmud xat oladi. Unda akasi bilan jang qilishga undalgan edi. Bu maktubni qaynotasi Doniyolbiy o‘qib juda sevinadi va Amir Nasrulloga hadyalar, maktub bilan elchi jo‘natadi. Bir necha bor elchilik munosabatlarida yozilgan xatlar natijasida keyingi yilga amir Nasrullo Qo‘qonga hujum qiladigan, xonlik taxtiga Sulton Maxmudxonni o‘tkazadigan bo‘ldi. Xutbadan avval amir Nasrudlloni ismi o‘qilishi, xarbiy askarlar sarf

xarajatini bir necha yil ko‘tarishi, Buxoro dushmanlariga qarshi urushda qatnashishi sharti qo‘yilganda, ushbu shartlarga roziligi haqida Sulton Maxmud guvohlar oldida qasam ichadi. Lekin tarixiy voqealar rivoji ular rejasiga ko‘ra amalga oshmagan. Chunki ba’zi sabablarga ko‘ra Umarxonning o‘g‘illari yarashib oladilar. Bu voqeani Xudoyorxonzoda quyidagi mazmunda qayd etgan: “Muhammadalixon amir Nasrullo huzuriga Xo‘jandga Muhammadaminbek, Mirzo Muhammadayub munshi, Maxmud shig‘ovullarni elchi qilib yuborgan.Elchilik marosimlaridan keyin Buxoro amiri ularga Jizzax xokimi Ostonaqul eshikog‘asini qo‘shib Muhammadalixon huzuriga elchi yuboradi. Xondan Toshkent va Turkistonni barcha hududlari bilan birga unga berishlarini talab qiladi. Bu borada bir necha marta elchilarning bordi-keldisi amalga oshiriladi.(bu vaqtda Nasrulloxon Xorazmda kelib chiqqan munosabat bilan ovora bo‘lib qoladi.) Muhammadalixon ukasi Sulton Maxmudga Toshkent va Turkiston boshqaruvini topshirib, ikkalasi inoqlashib oladi. [2.17.288-b.]” Tabiiyki, Buxoro amiri Nasrullo bundan g‘azablanadi, hamda kelgusi yil, ya’ni, 1258/1842 yilda Buxoro amiri Qo‘qonga hujum boshlaydi.

Uning hujumiga qarshi strategik tadbirni amalga oshirish maqsadida Xo‘jandni bosib olib, Beshariq hududida dam olayotgan Nasrullo huzuriga Muhammadalixon o‘z o‘g‘li Muhammadaminbek va Beklarbegini, ikki olim bilan birgalikda elchi qilib jo‘natadi [3.18.124-b.]. Lekin amir ularni asir qiladi. Yuqoridagi bir-biriga bog‘liq siyosiy voqealarda davlat xazinasidan moliyaviy ta’minlangan elchilik munosabatlarining maqsadli amalga oshirilganligi va ba’zi hollarda ular natijasiz tugaganligi guvohi bo‘linadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Elchilik an’anasiga ko‘ra, bir mamlakatdan elchi kelsa hamda uning elchilik vazifasi hali tugallanmasdan, yurtiga borishiga to‘g‘ri kelib qolsa, bu holda unga shu davlat o‘z elchisini ham qo‘shib yuborishi lozim bo‘lgan. Bu odat to elchining missiyasi tugagungacha davom etgan. Misol uchun, Buxoro xoni Raximbiy Qo‘qonga hadyalar va nomalar bilan elchi jo‘natganligi, Qo‘qon xoni ham o‘z singlisining o‘g‘li Xonxo‘ja Yusufalixo‘ja o‘g‘lini Buxoroga elchi qilib yuborganligini aytish mumkin. Buxoro xoni Xonxo‘janing o‘z yurtiga qaytishida unga qo‘shib elchilik vazifasida Yovqochtibiyni jo‘natgan [3.19.290-b.]. Qo‘qonga kelib elchilik maqomidagi vazifalarini ado etganidan so‘ng Yovqochtibiy Buxoroga qaytmoqchi bo‘lganida Erdonabiy biror nufuzi baland amaldorni unga qo‘shib yubormoqchi bo‘ladi. Shunda Xonxo‘ja o‘zi Buxoroga bormoqchi ekani, u yerda tahsil olish niyati borligini bildiradi. Yovqochtibiy bilan xonning elchisi sifatida yana Xonxo‘ja Buxoroga birga qaytadi. Ular Buxoroga borganlarida, Raximbiy Xonxo‘janing tahsili uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi hamda unga oylik maosh tayinlaydi. Xonxo‘ja Buxoroda uzoq qolib ketadi.

“Anjum at-tavorix” asarida Qo‘qon xonligining moliyaviy tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan elchilik munosabatlari yoritilishi natijasini quyidagicha muhokama qilish mumkin:

Qo‘qon xonligi elchilik munosabatlari moliya tizimiga qiyidagicha ta’sir o‘tkazgan:

-har bir elchilik munosabatlari moliyaviy kirim yoki sarf xarajatdan iborat bo‘lgan;

-siyosiy mazmundagi elchilik munosabati natijasida hudud xonlik tarkibiga qo‘shilsa soliq obyekti ko‘payib, xazinaga daromad kelishidagi resurs paydo bo‘lgan. Yoki, aksincha bo‘lsa, soliq obyekti yo‘qotilgan;

-Qo‘qon xonligi va chet davlat bilan o‘tkazilgan elchilik muzokaralari ijobiy yakunlansa mamlakatlararo savdo hamda iqtisodiy munosabatlar kuchayib borgan.

XULOSA (CONCLUSION)

Qo‘qon xonligi moliya tizimini elchilik munosabatlari bilan bog‘liqligini “Anjum at-tavorix” asari asosida tahlil etilishi yuzasidan qu’yidagilarni xulosa sifatida havola etish mumkin:

-Xudoyorxonzodaning bu asarida Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda muhim bo‘lgan yana bir yirik manba “Ansob as-salotin va tavorix al xavoqin” asarida keltirilgan elchilik munosabatining moliyaviy asosiga ham guvoh bo‘lindi. Bu Qo‘qonga Buxoro elchisi kelishi, uni yaxshi kutib olinishi, lekin Sheralixon unga biror so‘z degizmasdan haydab chiqargani yozilganligidir.

-Qo‘qon xonlari huzurlariga kelgan elchilarni uch xolatda izzat ikrom bilan kutib olgan: 1) Agar elchi xushxabar bilan kelsa; 2) elchi muomalali, so‘zga chechan, aqlli, farosatli bo‘lsa; 3) ko‘p qimmatbaho sovg‘alar bilan kelsa;

-Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan elchilar xondan ijozat berilsagina elchi o‘z yurtiga qaytishi mumkin bo‘lgan.

-Qo‘qon xonligida elchilik munosabatlariga ko‘ra qabul qilingan qoidalardan yana biri - xon elchilarning sovg‘alarini olib qolib yaxshi sovg‘alar bilan qaytarishi kerak, agar o‘zining olib kelgan hadyasini bersa elchini yoki jo‘natgan kishini tahqirlashga kiradi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Urinbaev A. Neizvestnaya rukopisg‘ po istorii Kokandskogo xanstva. // Izvestiya AN UzSSR.Obo‘estvennqe nauki. – № 3. – Tashkent, 1957. – S. 33-38.; Nabiev R.N. Iz istorii feodalg‘nogo zemlevladeniya v Fergane v XVI-XVII vv. // Izvestiya AN UzSSR. Seriya obo‘estvennqx nauk. – 1960. – №3 – S. 25-34; O‘sha muallif. Tashkentskoe vosstanie 1847 g. i yego sotsialg‘no-ekonomicheskie predposqlki. – Tashkent: Fan, 1966. – 80 s; O‘sha muallif. Iz istorii Kokandskogo xanstva (Feodalg‘noe xozyaystvo Xudoyar-xana). – Tashkent: Fan, 1973. – 388 s. ; O‘sha muallif. Vakfnoe xozyaystvo Kokandskogo xanstva. – Tashkent, 2010. – 643 s. (Keyingi o‘rinlarda: Nabiev R.N. Vakfnoe xozyaystvo Kokandskogo xanstva.); Juvonmardiev A. XVI - XIX asrlarda Farg‘onada yer - suv masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1965. – 182 b.; Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: SHarq, 1998. – 480 b.; Bababekov X.N. Istoricheskaya literatura o Kokandskom xanstve (Russkaya literatura 60-70-xg. XIXv). Avtoreferat dis... kand. istor. nauk. – Tashkent, 1970. – 20 s.; Beysembiev T. Tarixi SHaxruxi kak istoricheskiy istochnik. Diss... kand. ist. nauk. – Tashkent: IV AN RUz, 1983. – 315 s; O‘sha muallif. Duxovenstvo v politicheskoy jizni v Kokandskom xanstve v XVIII - XIX vv. // Bartolg‘dovskie chteniya, 1982. God shestoy. Tezis dokladov i soobo‘eniy. – Moskva, 1985. – S. 213-214; O‘sha muallif. «Tarixi SHoxruxi» kak istoricheskiy istochnik. – Alma-ata: Nauka, 1987. – 200 s; O‘sha muallif. «Tarixi SHaxruxi» o Vostochnom Turkestane. // Iz istorii Sredney Azii i Vostochnogo Turkestana v XV-XIX vv. – Tashkent, 1987. – S. 162-174; O‘sha muallif. K. Legenda o proisxojdenii kokandskix xanov kak istochnik ideologii v Sredney Azii: na materialax sochineniy Kokandskoy istoriografii. // Kazaxstan, Srednyaya i TSentralnaya Aziya v XVI-XVIII vv. – Alma-Ata, 1989. – S. 192; Vaxidov SH. Avaz Muhammad Attar i yego sochinenie “Tarixi djaxannumai” (Tuxfat ut-tavarixi xani). Issled. per. i primech. Diss...kand. ist. nauk. – Tashkent: IV AN RUz, 1990. – 154 s.; Ishkuvvatov V. XX asrning II yarmi tarixshunosligida Qo‘qon Rossiya diplomatik munosabatlari. Tarix fan. nomz... diss... – Toshkent, 2003. – 152 b.; Ilxomov 3. Aliquli Amirlashkar va uning Qo‘qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o‘rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b.; Sultonov O‘. Muhammad Solihxojaning “Tariji jadidayi Toshkand” asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.; O‘sha muallif. Muhammad Solihxoja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2009. – 269 b.; Maxmudov SH. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalarda hadyalarning tutgan o‘rni. // Toshkent islom universtiteti ilmiy tahliliy axboroti. –№ 1. – Toshkent, 2011. – B. 4-6; O‘sha muallif. Selcukluler tarihi “Muntahab ut-tewarih”de yorum ve tahlil. // II-Uluslararasi Selcuklu kultur ve Medeniyeti Sem’ozyumu; Maxmudov SH. Qo‘qon xonligida xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilish. // “Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzusidagi IV respublika ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari. – Farg‘ona, 2017. – B.136-138.; Tursunov B. Mansabning mohiyati va mahsuliyati (Qo‘qon xonligidagi harbiy boshkaruv tizimining ayrim jihatlari). // Tahlim va tafakkur. – Toshkent, 2005. – № 1. – B. 30-31; O‘sha muallif. Qo‘qon xonligida xarbiy ish va qo‘shin: xolati, boshqaruvi, anhanalari (XIX asrning 70-yillarigacha). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2006. – 164 b.; Qo‘ldoshev SH. Qo‘qon xonligi va SHarqiy Turkiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII-XIX asr o‘rtalari). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2009. – 166 b.; O‘sha muallif. Qo‘qon xonligi va Xitoy (CHin imperiyasi) o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar. – Toshkent, 2019. – 336 b.; Xudoyqulov T. XIXasrda Qo‘qon xonligining ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2009. – 151 b.; Babadjanov B.M. Kokandskoe xanstvo: vlastg‘, politika, religiya. – Tokio-Tashkent, 2010. 743 s.; Ahmedova M. Qo‘qon xonligining tashkil topishi, davlat tizimi va huquq manbalari. Yuridik fan nomz... dis. – Toshkent, 2010. – 142 b.(1. Urinbaev A. Unknown manuscript on the history of the Kokand Khanate. // Proceedings of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. Society of Science. - No. 3. - Tashkent, 1957. - S. 33-38 .; Nabiev R.N. History of feudal lands in Ferghana in the XVI-XVII centuries. // News of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR. Social Sciences Series. - 1960. - No. 3 - S. 25-34; That author. From the history of the Kokand Khanate (Feudal economy of Khudoyar Khan). - Tashkent: Nauka, 1973. - 388 p. ; That author. Waqf economy of the Kokand Khanate. - Tashkent, 2010. - 643 p. (In the following places: Nabiev R.N. Waqf economy of the Kokand Khanate.); Dzhuvonmardiev A. On land and water issues in Ferghana in the 16th-19th centuries. - Tashkent: Nauka, 1965. - 182 p.; Ziyoev H. Struggle against Russian aggression and domination in Turkestan. - Tashkent: Shark, 1998. - 480 p.; Bababekov Kh.N. Historical literature about the Kokand Khanate (Russian literature of the 60-70s of the XIX century). Abstract of dis... cand. desire science - Tashkent, 1970. - 20 p.; Beisembiev T. History of Shahrukhi as a historical source. Diss... cand. ist. science - Tashkent: IV AN RUz, 1983. - 315 p.; That author. Clergy in political life in the Kokand Khanate in the 18th - 19th centuries. // Barthold Readings, 1982. Sixth year. Dissertation reports and works. - Moscow, 1985. - S. 213-214; That author. "Tarihi Shokruhi" as a historical source. - Alma-Ata: Science, 1987. - 200 p.; That author. "History of Shahrukhi" about East Turkestan. // From the history of Central Asia and East Turkestan in the XV-XIX centuries. - Tashkent, 1987. - S. 162-174; That author. K. The Legend of the Origin of the Kokand Khans as a Source of Ideology in Central Asia: Based on the Works of Kokand Historiography. // Kazakhstan, Central and Central Asia in the XVI-XVIII centuries. - Alma-Ata, 1989. - S. 192; Vakhidov Sh. Avaz Mohammad Attar wrote his book "Tarihi jahannumai" (Tuhfat ut-tawarikh khani). Research per. I note. Diss... cand. ist. science - Tashkent: IV AN RUz, 1990. - 154 p.; Ishkuvvatov V. Kokan Russian diplomatic relations in the historiography of the second half of the 20th century. History is science. nomz ... diss ... - Tashkent, 2003. - 152 p.; Ilkhomov 3. Aliguli Amirakar and his place in the political history of the Kokhan Khanate. History is science. nomz... diss. - Tashkent, 2004. - 160 p.; Sultanov O‘. The work of Muhammad Salihkhodzhi "Tariji zhadayi Tashkent" as an important historical source (XIX century). Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2007. - 157 p.; That author. Muhammad Salihkhoja and his work "History of Tashkent". - Tashkent: "Uzbekistan", 2009. - 269 p.; Makhmudov Sh. The role of gifts in the diplomatic relations of the Kokan Khanate. // Scientific and analytical information of the Tashkent Islamic University. - No. 1. - Tashkent, 2011. - S. 4-6; That author. Commentary and analysis of the history of the Seljuks in "Muntahab ut-tevarih". // II-International seminar on Seljuk culture and civilization; Mahmudov Sh. Reception of ambassadors of foreign states in the Kokan Khanate. // Materials of the 4th republican scientific-theoretical conference on the topic "History of the Ferghana

Valley in new research". - Ferghana, 2017. - P.136-138.; Tursunov B. The essence and productivity of a career (some aspects of the military administration system in the Kokan Khanate). // Learning and thinking. - Tashkent, 2005. - No. 1. - S. 30-31; That author. Military affairs and the army in the Kokan Khanate: state, management, traditions (until the 70s of the XIX century). Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2006. - 164 p.; Koldoshev Sh. Political, economic and cultural relations of the Kokan Khanate with Eastern Turkestan (mid-18th-19th centuries). Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2009. - 166 p.; That author. Diplomatic relations between the Kokand Khanate and China (Chinese Empire). - Tashkent, 2019. - 336 p.; Khudoykulov T. Socio-political, economic and cultural life of the Kokan Khanate in the 19th century. Historical science., nomz ... diss. - Tashkent, 2009. - 151 p.; Babadzhanov B.M. Kokand Khanate: power, politics, religion. - Tokyo-Tashkent, 2010. 743 p.; Akhmedova M. Formation of the Kokan Khanate, state structure and sources of law. Legal sciences nomz ... dis. - Tashkent, 2010. - 142 p.)

2.Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. O‘zRFA SHI qo‘lyozmasi. – № 599.(Khudoyorkhanzoda. Anjum at-Tawarikh. Manuscript of SGI RF. - No. 599.)

3.Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. / So‘z boshi, ilova mualliflari: Bobobekov H.,Sulaymonov I.larniki, tarjima va izohlar: Vohidov SH. – Toshkent:Fan va texnologiya, 2014. – 348b.(1. Khudoyerkhanzoda. Anjum at-Tawarikh. / The authors of the introduction, appendices: Bobobekov Kh., Sulaimonov I., translation and comments: Vohidov S.Kh. - Tashkent: Science and technology, 2014. - 348 p.)

4.Maxmudov SH. “Usmonli arxivi” fondida saqlanayotgan Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalariga doir xujjatlar. // Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda nomli konferentsiya to‘plami. – Farg‘ona, 2002. – B. 132-136.(2. Makhmudov Sh.Kh. Documents on the diplomatic relations of the Kokhan Khanate are stored in the Ottoman Archive fund. // Ferghana Valley in the collection of the New Research conference. - Fergana, 2002. - S. 132-136.)